

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDA GI BOLALARGA SIFATLI TA'LIM TARBIYA
BERISHDA "ILK QADAM" DAVLAT O'QUV DASTURINING O'RNI VA ROLI**

Torayeva Oydinoy Qodirjon qizi

**Andijon viloyati Paxtakor tumani 28-
DMTT o'qituvchi logoped**

Xoshimova Manzura Qudratbek qizi

**Andijon viloyati Oltinko'l tumani 2-
DMTT o'qituvchi logoped**

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda davlat ta'lim standartlari va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga qo'yilayotgan davlat talablari normalaridan kelib chiqib maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilayotgan mashg'ulotlar jarayoni "Ilk Qadam" davlat o'quv dasturi asosida tahlil qilib berildi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ta'lim dasturi, Texnologiya, Ilk Qadam, Kompetensiya, «Men» konsepsiyasi

**THE ROLE AND PLACE OF THE "FIRST STEP" STATE CURRICULUM IN
PROVIDING QUALITY EDUCATION TO PRESCHOOL CHILDREN**

Annotation

The article analyzes the process of training organized in preschool educational organizations based on the "First Step" state curriculum in preparing preschool children for school, based on the norms of state educational standards and state requirements for preschool children.

Keywords: Modern educational program, Technology, First Step, Competence, "I" concept.

Maktabgacha ta'lim bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlash bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirilishda uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bosqichidir. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tubdan yaxshilash maktabgacha yoshdagi bolalar qamrovini oshirish, ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda har jihatdan zamonaviy tizim yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bolalarning qiziqishi va intilishlarini hisobga olgan holda ularga ta'lim-tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarini singdirib borish mazmunini hamda maktabgacha ta'limning boshqaruv tizimini qayta ko'rib chiqilishini toqazo etmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, bolalarni sog'lom va barkamol etib tarbiyalashning barcha jihatlari belgilab berildi. Xususan, yangi tuzilgan maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi oldida shu soha bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar

bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishini keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo'yildi.

Shu maqsadda maktabgacha ta'lim tashkilotiga "Ilk Qadam" Davlat o'quv dasturi joriy etildi. Dasturning ahamiyati shundan iboratki, u o'z ichiga 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab olgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda "Ilk Qadam" dasturining ahamiyati shundan iboratki, u bolada erkinlik hissining shakllanishida, o'z-o'ziga bo'lgan ishonch, mustaqil fikrlash, erkin ijod qila olish, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, kattalarga bo'lgan hurmat kabi xislatlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu dastur amaliyotda, Koreya texnologiyasi asosida andoza sifatida o'rganilib maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar jarayoniga tadbiq etildi va bugungi kun tarbiyachisiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Pedagoglarni malakasini oshirishda jahon andozalariga mos yangiliklarni o'z vaqtida o'zlashtirish va uni pedagogik jarayonda uzviy qo'llash "Ilk Qadam" dasturining asosiy negizi hisoblanadi.

2018 yil 7 iyulda "Ilk Qadam" Davlat o'quv dasturi tasdiqlangan va nashr qilish uchun tavsiya etilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish borasidagi Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari ifodalangan, shuningdek, bola ta'limning keyingi bosqichiga o'tishdagi asosiy kompetensiyalari belgilangan.

Bolaning dunyoqarashini shakllantirish uchun muhim omillardan biri hisoblangan madaniy-tarixiy qadriyatlar: milliy va mintaqaviy an'analar bilan reja asosida olib borishni tashkillashtirish, shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali qo'shni viloyatlarni madaniy meroslari aks ettiruvchi audio-vediolalar bilan tanishtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu orqali tarbiyalanuvchi bola milliy qadriyatlar, tarixni anglash, tarixdan g'ururlanish kabi tuyg'ularga ega bo'ladi.

Ushbu dasturda maktabgacha yoshdagi bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablari asosida hamda MTT davlat o'quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsad qilib olingan. O'quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi esa bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Ushbu o'quv dasturi birinchi bobi umumiy qoidalar sanalib, birinchi bandida, MTT o'quv dasturi me'yoriy-huquqiy hujjat sifatida O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi ta'lim tashkilotlarida qo'llanilishi va ta'lim tashkilotlarida o'quv dasturlarini yaratish uchun majburiy hujjat ekanligi, ta'lim tashkilotining ishchi o'quv dasturi tashkilot pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuzilishi va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanishi ko'rsatib o'tilgan. Ikkinchi badda MTTning maqsad va vazifalari haqida ma'lumotlar o'z aksini topgan.

O'quv dasturining ikkinchi bobi 5-banddan iborat bo'lib, MTT ta'lim jarayonining maqsad va tamoyillari aks etgan: MTT ta'lim jarayonining maqsadlari; MTTda ta'lim jarayonini tashkil qilish tamoyillari; Qo'shimcha ta'lim xizmatlarini tashkil qilish; Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim faoliyati; Ota-onalar bilan hamkorlik jarayonlarini qamrab olgan.

O'quv dasturining uchinchi bobi maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv haqida fikrlar bildirilgan bo'lib, 2-bandni qamrab olgan:

I. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari bunga: Kommunikativ kompetensiya; O'yin kompetensiyasi; Ijtimoiy kompetensiya; Bilish kompetensiyasi.

II. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari ham o'z navbatida bir necha turlarga bo'linadi: "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish" sohasi kompetensiyalari; "Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasi kompetensiyalari; "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasi kompetensiyalari; "Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasi kompetensiyalari; "Ijodiy rivojlanish" sohasi kompetensiyalari.

To'rtinchi bobi o'quv-tarbiyaviy jarayon o'z ichiga olgan bo'lib, «O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari» asosida amalga oshirilishi, o'quv-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish haqida fikrlar bayon etilgan.

Beshinchi bobi bolaning rivojlanish sohalari bo'yicha yutuqlari hisoblanadi. Bolaning rivojlanish xaritasi 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, har bir bola uchun individual tarzda yiliga uch marta to'ldirilishi va 6-7 yoshli bolalarning maktabga tayyorlik xaritasi faqat maktabgacha ta'lim tashkilot bitiruvchilari uchungina to'ldiriladi.

Oltinchi bobi rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yettinchi bobi Davlat o'quv dasturiga ilovalar ya'ni MTT ta'lim dasturini tuzish bo'yicha tavsiyalar iborat.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida qator islohotlar o'tkazilmoqda, ularning bari bolalar va pedagoglar manfaatlarini yo'lida xizmat qilishiga, shuningdek maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bir qatorda, respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotiga qamrab olishga hamda ta'lim jarayoniga endi kirib kelayotgan kichik yoshli bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashdek ma'suliyatli vazifani belgilab berdi.

2018 yil 18 iyunda O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari asosida ishlab chiqilgan hamda 2018 yil sentabr oyidan respublikamizning barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yetkazib berilib amaliyotga tatbiq etilgan yangi "Ilk Qadam" davlat o'quv dasturi ta'lim jarayoniga qo'shilayotgan kichik yoshli bolalarning ilk qadamlarining asosiy tamoyildir.

Dasturda barcha narsaning asosi ijtimoiy yondashuvdir, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonining diqqat markazida bola va uning manfaatlarini turadi. Pedagog ota-ona, pedagogik tarkib, bolaning o'zi va albatta, jamiyat hamda davlat kabi ijtimoiy hamkorlar bilan bir ijtimoiy muhitni tashkil qiladi.

Avvalo, "Ilk Qadam" davlat o'quv dasturi asosida bolalarni bilim olish jarayonini o'yinlar orqali rivojlantirish yotadi. Bu esa bolalarda ilm olish, ijod, ijtimoiy yo'nalish kabi tushunchalarni rivojlanatirib, bolada sog'lom hayot tarzi tarbiyalanadi va ular ijtimoiy muhitda o'zlarini qanday tutish kerakligini tushuna boshlashadi.

Bolalarning jamiyatga ijtimoiylashuvini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilishi "Ilk Qadam" davlat o'quv dasturining zamonaviy jahon standartlari andozalari asosida yaratilganini ko'rsatib beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur

bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, «Men» obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi.

Boshlang'ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq sub'ekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi.

Kompetensiya bolaning bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyat va qadriyatlari majmuidir. Boshlang'ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat'i nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga kompetensiyaviy yondashuv, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarida belgilab berilgan kichik va maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni besh yo'nalishda rivojlantirib, bolani 4 kompetensiyaga ega bo'lgan holda 1-sinfga chiqishidagi motivatsion vazifalarni hamda "Ilk Qadam" davlat o'quv dasturi vazifalarni to'laqonli bajarilishini ko'zlaydi.

Istiqbolda belgilanayotgan bunday ulkan vazifalarning amalga oshirilishi soha mutaxassislarini, sohaga oid me'yoriy huquqiy hujjatlarni hamda maktabgacha ta'lim pedagogikasini puxta o'zlashtirib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib bermoqda.

Bundan tashqari texnikum va pedagogika kollej o'quvchilarini, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining pedagogik mahoratini oshirish borasida o'tkazilayotgan amaliy seminar-treninglarning asosiy maqsadi "Ilk Qadam" davlat o'quv dasturi doirasida bolalarga bilim berishda bolalar xonalarning hatto kichik detallarigacha qulay dizayni bilan jihozlashni, ular uchun boy adabiyotlar va rivojlantiruvchi o'yinlardan to'g'ri va unumli foydalanish usullarini o'rgatishdir.

Bu esa kelajagimiz davomchilari yosh avlodni, erta bolalikdan jamiyatda o'zini tutish va shaxsiy gigiena ko'nikmalarini tarbiya qilish kabi alohida jihatlarni o'zida tarkib toptirishga hamda maktabgacha ta'lim tizimi muvaffaqiyatining asosini tashkil etishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash lozimki, tizimdagi islohotlar samarasini sohaga tatbiq eta oladigan kadrlar tayyorlash maqsadida, malakali pedagog xodimlarning ilg'or usullar bilan mashg'ulot o'tishlari uchun ham alohida e'tibor qaratilib, "Ilk Qadam" davlat o'quv dasturini o'zlashtirish hamda bo'lajak tarbiyachilarning muntazam mahoratini oshirib borishlari uchun seminar-treninglar, qo'shimcha mashg'ulotlarning ham tashkil etilishi tom ma'noda sohani dunyo standartlari darajasiga olib chiqilishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni 2019 yil 16 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2018-yil 18-iyundagi 1-mh-sonli "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida" buyrug'i.